

YOSHLARNI ILM-FAN SOHASI VA KASB-HUNARGA JALB QILISHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGINING O'RNI

Isaqova Sayyora Hamdamovna

*Farg'ona viloyat Farg'ona tuman MMTBga qarashli
30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktab amaliyotchi psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida yoshlarni ilm-fan sohalari hamda kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida maktab amaliyotchi psixologining tutgan o'rni tahlil etilgan. Maktab psixologi o'quvchilarning individual qiziqishlari, intilishlari, qobiliyatlarini aniqlab, ularni mos yo'nalishlarga yo'naltirishda muhim vositachi sifatida ishtirok etadi. Tadqiqotda psixologik diagnostika, maslahat, monitoring va motivatsion yondashuvlar orqali kasb tanlash jarayonini ilmiy asosda tashkil etish mexanizmlari yoritilgan. Ilmiy-nazariy qarashlar bilan birga amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: ilm-fan, kasb-hunar, maktab psixologi, o'quvchi qiziqishi, kasbga yo'naltirish, motivatsiya, psixologik maslahat, diagnostika, o'zini anglash, kompetensiya.

Jamiyatdagi har qanday mehnatga layoqatli inson o'zining mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga o'z ulushini qo'shib boradi. Inson o'zining mehnatida jismoniy, aqliy, psixologik imkoniyatlarini sarflab, o'z qobiliyatlarini, ijodiy imkoniyatlarini sarf qiladi. Bular uni ijodiy mehnatdan qoniqishini ta'minlaydi. Shuni aytish kerak-ki, kasb-hunar va uni egalari azaldan xalqimiz tomonidan e'zozlanib kelingan. O'zbekistonda hozirda bilimdon, o'z kasbini yaxshi egallagan, mustaqil fikrlovchi, o'z kasbiga ijodiy yondoshuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, izlanuvchan, intiluvchan mohir ustalar, kasb egalari ko'proq talab qilinmoqda. Kaykovus o'zining "Qobusnoma" asarida shunday yozadi "Bas, agar aqling boisa hunar o'rgang'il, nedinkim hunarsiz aql -boshsiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo'лки, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf ep ko'rmas." So'nggi yillarda respublikada ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda, iqtidorli yoshlarni nufuzli milliy hamda xalqaro olimpiadalar, musobaqalar va tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlari uchun zarur shart sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish, innovatsion g'oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, iqtidorli talabalar, yosh olimlar va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini

rag'batlantirish, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh. Mirziyoyev ko'rsatmasiga ko'ra 2020-2021 o'quv yilidan 7-sinf dan boshlab o'quvchilar kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga alohida urg'u berila boshladi. O'quvchilarni aynan qanday kasb egasi bo'lishi aniqlash va ularni o'zlari qiziqqan kasbga yo'naltirish maqsadida 8, 9, 10 sinfga qadar ular o'zlari tanlangan kasb-hunar bo'yicha o'qitilib borilishi zarurligi alohida ta'kidlab o'tildi. Ushbu ko'rsatmadan ko'rinib turibdiki yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasbga yo'naltirish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Bu borada maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish, iqtidoridan kelib chiqib to'g'ri kasb tanlashi katta ahamiyatga ega. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga ta'lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muxtoj bo'lib boraveradi. Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog'lik emas, u ma'lum yoshga kelib o'z o'zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Jamiyatning yoshlarga ta'lim va tarbiya berishida pedagoglarni - o'qituvchilarni o'rni va ahamiyati nihoyatda kattadir. O'qituvchi -maktabdagi, kasb - hunar kollejaridagi ta'lim - tarbiya jarayonlarining asosiy tashkilotchisi, boshqaruvchisi, jamiyatga yangi kadrlarni yaratib beruvchisi hisoblanadi. Yosh yigit va qizlarni ma'lumot va kasb jihatidan umumiy tayyorgarlik darajasi, mustaqil ijodiy tafakkur taraqqiyoti, tarbiyalanganlik darajasi, fikrlay olish va tahlil qila olish, fahm - farosatlik darajasi kabilarni yuzaga kelishi eng avvalo o'qituvchining faoliyati bilan rivoj topib boradi. Shuning uchun o'qituvchi shaxsi bu eng mas'uliyatli va qadrlis kasb hisoblanadi. Zamonaviy maktab va kasb - hunar o'qituvchisi ta'lim va tarbiya-ga tegishli qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi - o'quv jarayonini tashkilotchisi sifatida kasbga tegishli bo'lgan masalalarga ham o'z diqqatini qaratib boradi. Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog ham bo'lishi, jamiyatdagi kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyojlar bilan ham tanishgan bo'lishi kerak.

Kasbni egallash bilan bog'liq maslahatlar va yo'nalishlar berib borish ham pedagog zimmasiga tushgandir. Chunki pedagog bola bilan birgalikdagi faoliyati davomida undagi qiziqishlar va havaslarni ham bilib turadi. Bu esa unga bolani qaysi kasbni egallashni xohlashini ko'rishga imkon yaratadi. O'qituvchi shaxsi bu o'sib kelayotgan yoshlarga ularni iqtidorligidan, qobiliyatidan, qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasblarni egallashlariga o'z yo'l yo'riqlarini berib, tarbiyalab borishlari kerak

bo'ladi. O'qituvchi maktab, litsey, kollejlardagi o'qish jarayonlarini asosiy boshqaruvchisi va tashkilotchisi hisoblanadi. Bolalar bilan bo'ladigan o'z faoliyati davomida o'qituvchi sinfdagi har bir bola haqida umumiy va individual ma'lumotga ega bo'ladi. Bular esa o'qituvchini ular bilan bo'ladigan o'zaro muloqotida har bir bola va uning imkoniyatlari haqida bilimlarga ega bo'lishiga olib keladi. Boladagi kasb tanlash jarayonida o'qituvchi asosiy ta'sir etuvchi insonlardan biri hisoblanadi. O'qituvchi o'z kasbini tanlashda o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'ladi. O'qituvchi boladagi psixologik imkoniyatlardan kelib chiqqan holda uni ma'lum bir kasbga yo'llab turadi, y a'ni kasbiy maslahat beradi. O'qituvchi bu holatda kasblarga xos xususiyatlarni bilishi va ularni bolalarga tushuntirib berishi zarur bo'ladi. Bugungi kun zamonaviy pedagogi o'z kasbining mohir bilimdoni bo'lish bilan birga olam kasblaridan ham habardor bo'lishi zarur. Zero, bugunning yoshlari bizdan ko'ra ilg'or va qiziquvchan, qolaversa axborotlashgan jamiyatda o'quvchi har qanday kasb haqida internet tarmoqlaridan yetarlicha ma'lumotlarni bilib olishi mumkin. Zamonaviy o'qituvchi shularni hisobga olgan holda o'quvchini kasbga qiziqitira bilishi, o'quvchi uchun yangilik bo'lgan ma'lumotlar bilan o'quvchini boxabar qilib bormog'i lozim. Rivojlangan davlatlardan biri Germaniyada har bir maktab o'quvchisi maktabni tamomlagunga qadar 5 hunarni mukammal egallashi zarur. Ularning fikricha 5 hunarni o'rgangan kishi qaysi zamon va qaysi makonda bo'lishidan qat'iy nazar qiyinchilikka uchramas ekan. Jahon tajribalarini o'rgangan holda o'quvchilarni kasb hunarga yo'naltirib borish esa o'quvchilar kelajagini ta'minlashda poydevor bo'lib hizmat qiladi.

Birinchi prezidentimiz Islom.Karimov ta'kidlaganidek "Bizning eng katta boyligimiz bu-mehnatkash ,bobo dexqon xalqimizdir". Darhaqiqat xalqimiz mehnatsevar, zahmatlkash xalq. Asrlar osha ota-bobolarimiz, momolarimiz bir nechta hunarlarni mukammal bilib kelganlar. Bugun ham pedagoglarimiz orasida shunday insonlar bo'lib hozirda o'quvchilarga kasb-hunar sirlarini ham o'rgatib kelmoqdalar. Xalq ta'lim tizimida hunarmad ustozlarni izlab topish, ularni o'quvchi yoshlarga hunar o'rgatishga jalb qilish va rag'batlanitirish esa maktab tizimida o'quvchilarning hunar o'rganishiga imkon berish va bandligini ta'minlashga hizmat qiladi. Qolaversa, o'quvchilarning maktab davridayoq chetga chiqmasdan turib zamonaviy hunar egasi bo'lishiga imkon yaratiladi. Bundan tashqari kasb hurar o'rganish bilan mashg'ul bo'lgan o'quvchilarda vaqtdan unumli foydalanish ko'nikmalari ham mavjud bo'ladi. Vaqt qadriga yetgan kishi esa hayot yo'llarida muvofaqqiyatlarga erishishda qoqilmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахмонова Г.Х. Kasb ta'limida psixologik yondashuvlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

2. Raximov N., Jo'rayev Sh. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish metodikasi. — Toshkent: "Fan", 2020.
3. Qodirova N.M. Maktab amaliyotchi psixologi faoliyati. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2019.
4. Super, D.E. *The Psychology of Careers*. — New York: Harper & Row, 1957.
5. Holland, J.L. *Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments*. — Odessa, FL: Psychological Assessment Resources, 1997.

